Теоретические основы формирования понятия «финансовая стабильность» Часть II	1143
Алиева Сусанна Сейрановна	
O'zbekiston moliya tizimini raqamlashtirishning rivojlanish tendensiyalari.....	1148
Tashmatova Rano Gaibovna, Qodirov Nurhayot Normuhammad o'g'li	
Theoretical basis of the use of modern information technologies in accounting	1154
Annayev Abdurasul Abdurashidovich, Tojiboyev Jasurbek Shavkat o'g'li, Rustamov Suxrob Asror o'g'li	
Moliyaviy bozorlar chayqalmoqda: investorlar uchun yangi signalmi?	1158
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li, Yaxshiboyev Jahongir Abdualimovich	
Yashil moliyalashtirish va esg samaradorligining iqtisodiyot barqarorligidagi o'rni.....	1166
Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'g'li, Atadjanov Kadambay Sapayevich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha tizimlarni takomillashtirish yo'llari	1170
Bekmurodova Mahbuba Mahmudovna	
Maqola: Globalizatsiyada inson resurslarini boshqarishda raqamli transformatsiyaning rejasini tuzish	1177
Salimjonova Gulhayo Asliddin qizi, Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Nabiye Sherzodbek Nurmuhammad o'g'li	
Turizm sanoatida Internet-marketing vositalari va ulardan samarali foydalanish	1182
Babaev Jo'rabek	
Ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ahamiyati	1190
Asqarova Lobarxon Usmanjanovna	
O'zbekistonda ichki turizm faoliyatini rivojlantirishda transport infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlari	1194
Turopov Maqsudjon	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishda soliq siyosatini takomillashtirishning ahamiyati	1199
Abdurahmonov Abdumalik Abdug'ani o'g'li	
Madaniy-tomosha xizmatlarining tahlili va uni rivojlantirish yo'llari	1204
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Цифровизация экономики и генезис стран мирового хозяйства	1211
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
“Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi” faoliyati	1216
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Soliq stavkalarini tabaqalashtirish asosida soliq to'lovchilar iqtisodiy faoliyatini tartibga solish mexanizmlari.....	1220
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar	1223
Xamdamov Shoh-Jahon Rahmat o'g'li	
Mintaqaning eksport salohiyati tahlili asosida istiqbolli y'nalishlarni aniqlash (Xorazm viloyati misolida).....	1229
Ibadullayev Ergash Bakturdiyevich	



Uy-joy kommunal xo'jaligini mintaqada innovatsion rivojlantirishni boshqaruvi	1235
Adilova Yulduz Shavkatovna	
Bank tizimi likvidligini ta'minlash vositalari va usullarini takomillashtirish	1239
Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li	
Milliy brendlarni shakllantirish orqali tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish	1245
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi	
Charm mahsulotlaridan tayyorlangan bolalar transformatsion sumka ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi	1250
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'zbekistonda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati: iqtisodiy tahlil va islohotlar zarurati	1256
Raximov Ilyos Ikramovich	
Yoqilg'i-energetika kompleksida innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi	1262
Nabiyeva Saidaxon Abduvaxabovna	
Banklarda moliyaviy xavfsizlik kategoriyasining evolyusiyasi	1268
Qobilov Muxammad Ayubxon Yusufjon o'g'li	
Развитие системы бухгалтерского учёта и отчётности на современном этапе	1273
Мамажонов Акрамжон Тургунович, Юсупова Малика Ботиралиевна	
Практика банковского кредитования предпринимательских субъектов сферы услуг в германии	1279
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовна	
Статистический анализ теневой экономики в узбекистане	1283
Кошанов Абдимурат Азат ули, Абдиразакова Асемай Жандулла кизи	
The importance of using digital technologies in business	1288
Makhmudova Munisakhon Abbos qizi	
0,4 kv kuchlanishdan ta'minlanuvchi suv nasoslarini tarmoq faza kuchlanishi yo'qolishidan himoyalash	1292
Xalikova Xurshida Abdullayevna, Nurova Malika Abduzairovna, Mustayev Ruslan Aktamovich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish	1297
Dexkonova Sayidaxon Nurmuxammatovna	
Ijtimoiy-iqtisodiyot va markaziy osiyo mamlakatlari ijtimoiy sohada	1302
Usmanxo'jayeva Surayyo Muxtarovna	
Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini tashkil etish va o'tkazish bosqichlari	1307
Raimov Farrux Avazjon o'g'li	
Approaches to effective management of tax liabilities through tax auditing	1311
Abdullayev Abror Bozarboevich	
Tijorat banklarida aktivlarni sekyuritizatsiyalash tizimini takomillashtirish	1316
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich	
Tashqi va ichki omillar ta'sirini hisobga olgan holda korxona moliyaviy holati barqarorligining tahlili	1325
Eshkuvatov Azizjon Baxtiyorovich	
Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	1330
Masharipov Rasulbek Jo'rabekovich	
Sun'iy intellekt asosida bank tizimini modernizasiya qilish va samaradorligini oshirish	1333
Boykulov Baxriddin Karshievich	
Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirish manbalaridan samarali foydalanish	1338
Arifjanova Yayraxon Usmonxo'jayevna	
Ipoteka obligatsiyalarining mamlakat iqtisodiyotining o'sishidagi ahamiyati hamda mazkur obligatsiyalar bilan bog'liq risklar	1343
Ibrohimov Yorqinjon To'liqin o'g'li	
Анализ спроса и потребительского поведения на продукцию, выращенную гидропонным методом	1349
Дурманов Акмал Шаймарданович	
Global moliyaviy inqirozlar sharoitida aholi daromadlarining barqarorligini ta'minlash strategiyalari	1355
Qurbanov Ulug'bek Erkinovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o'g'li	



“O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi: mavjud muammo va istiqbolli imkoniyatlar”	1359
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat xaridlarini tashkil etish amaliyotini takomillashtirish.....	1366
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish masalalari	1372
Abduraxmonova Ziyoda Abdullayevna	
Netto ish haqini hisoblashning innovatsion usullari.....	1378
Mirmahmudov Murod Ibratovich	
Xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik: iqtisodiy va ijtimoiy istiqbollar	1383
Xaydarova Shoxista Davranovna	
Texnologiya fanida sun‘iy intellekt va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	1388
Ashurov Nazar Raxmatullaevich	
Korporativ xaridlarni amalga oshirishdagi byurokratik to‘siqlar va ularni bartaraf etish usullari	1391
Qurbanov Shohboz Lutfillayevich	
Yashil yondashuvlar asosida barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	1396
Ubaydullaev No‘monjon Isroilovich	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini SWOT va pestel tahlil qilish orqali iqtisodiy bashoratlash.....	1401
Karimova Maftuna Nurdinovna	
O‘tkir revmatik isitmasi bor bolalarda kardiometriya ko‘rsatkichlarining statistik tahlili	1407
Muxamadiyeva Lola Atamuradovna	
Ways to develop digital economy and electronic government in UZBEKISTAN	1418
Nuriddinova Dilshodaxon Abdulla kizi	
O‘zbekistonda hayot sug‘urtasining joriy etilishi va unga ta’sir etuvchi demografik omillar ta’siri.....	1422
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	
Global iqlim o‘zgarishining turizm sektoriga ta’siri: muvofiqlashtirish va barqarorlikka erishish strategiyalari	1428
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
Prospects for the development of islamic microfinance services in uzbekistan.....	1433
Sadullaeva Gulnoza Usmanovna	
Global iqlim o‘zgarishi riski uning mamlakat iqtisodiyoti moliyaviy sektoriga ta’siri	1439
Baratov Sa’dulla Norjigit o‘g‘li, Jo‘rayev Behzod Nuraliyevich	
Перспективы унификации налогов на землю и имущество	1444
Акбарова Нилуфар Нейматжановна	
Banklarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzish tartibi	1449
Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna	
Kichik biznes subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmini takomillashtirish	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o‘g‘li	
O‘zbekiston Respublikasi hududlarida demografik jarayonlarning dinamikasi tahlili	1458
Xamitova Mavluda Sindarovna	
Ta’minot zanjirlarini boshqarishda big datadan foydalanishni afzalliklari	1463
Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o‘g‘li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o‘g‘li	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks	1474
Gulsara Ostonaqulova	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
Глазова Марина Викторовна	
Rivojlangan sug‘urta bozorlarida investitsiya faoliyati tahlili.....	1487
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	



O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendensiyalari.....	1491
Muxibova Guli Yarkinovna	
Aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli	1496
Ostanova Nargiza Baratovna	
Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar	1508
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Korxonlarni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish	1513
Yusupov Bekzod Ulugbekovich	
O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellash asosida prognozlash	1517
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
"Ijtimoiy himoya" kategoriyasiga qaratilgan nazariy qarashlar evolyusiyasi	1526
Bobonov N.H	
Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1532
Ikromova Odinaxon	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sifatini oshirishda raqamli xizmatlarning obyektiv zarurati	1537
Norov Murodjon Mahmudovich	
Oliy ta'lim xizmatlari mohiyati va rivojlanish nazariyasi.....	1541
Iskandarov Shahboz Shavkat o'g'li	
Davlat-xususiy sheriklikka oid ilmiy yondashuv va qarashlarning rivojlanish tendensiyalari	1545
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
Theoretical foundations of time series analysis in green economy	1552
Muradov Rustamjon Sobitkhonovich	
Korxona faoliyati samaradorligini baholashning kompleks yondashuvi: nazariya va amaliyot.....	1563
Xalilov Bekzod Axmatovich	
Aholi real daromadlarini shakllantirishda inson kapitalini rivojlantirishning roli.....	1568
Iskandarova Dilafruz Ikrom qizi	
Yashil iqtisodiyotda transportning tutgan o'rni.....	1573
Yuldasheva Saodat Arslanovna, Otanazarova Charos Baxtiyor qizi	
Xalqaro standartlar asosida hisob siyosati metodologiyasini takomillashtirish.....	1577
Qurbanboev Jurabek Eruvboevich	
Sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotdan samarali foydalanish istiqbollari.....	1585
Yuldasheva Saida Nematovna	
Mintaqaviy mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	1593
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	
O'zbekistonda yashil sug'urta mahsulotlarini rivojlantirishda xorij tajribalari	1600
Yusufov Asfandiyor Eldor o'g'li	
Понятие и типы финансовых шоков: макроэкономический контекст и микроуровневые последствия	1606
Захарова Ирина Борисовна	
Современное состояние оздоровительного туризма в Узбекистане	1611
Сирлибеков Хабибулло Шакарбоевич	
Impact of industrial development on macroeconomic indicators.....	1621
Olchinboyev Otabek Abdusamad ugli	
Анализ предпочтений на рынке электронной торговли в Узбекистане	1625
Уразов Комил Бахрамович, Хушмуродова Мадина	
Методы оценки деятельности акционерных обществ с учетом инвестиционных рисков.....	1639
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
Xalqaro moliyaviy markazlar va ularning jahon iqtisodiyotidagi roli.....	1645
Sharipova Shaxinabonu Orif qizi	
Development of modern tourism industry in Uzbekistan through smart technologies and digital transformation.....	1649
Master's student at Silk Road University	



Iqtisodiyotda qiymat nazariyasi asosida qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatni shakllanishi.....	1656
Azizov Shohsuvor Yuldashevich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar, ularda hisobdorlik va boshqaruvda axborotlarning tahliliyligini oshirish masalalari.....	1659
Yusupov Azizbek Baxtiyor o'g'li	
"Yashil" iqtisodiyotga o'tishda xalqaro hamkorlik: O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi yangi tendensiyalar	1665
Xashimov Pazliddin Zukurovich, Sobirxo'jaev Xadyatillo Billoxon o'g'li	
Uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari	1671
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna	
O'zbekiston va markaziy osiyo davlatlari budget siyosatining qiyosiy tahlili.....	1677
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich	
Kambag'allikni qisqartirish – mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlash omili sifatida	1683
Tashbaeva Saodatxon Alisherovna	



KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH – MAMLAKATDA BARQAROR IJTIMOIY-IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH OMILI SIFATIDA



Tashbaeva Saodatxon Alisherovna

Ichki ishlar vazirligi Farg'ona akademik litseyi

Huquqiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası, tarix fani bosh o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada kambag'allik tushunchasining iqtisodiy mazmuni, uni keltirib chiqaruvchi omillar hamda uni qisqartirishning asosiy yo'nalishlari tahlil qilingan. Tadqiqotda iqtisodiy o'sish sur'atlari, ta'lim darajasi, bandlik siyosati, tadbirkorlikni rivojlantirish va ijtimoiy himoya tizimi orqali kambag'allikni kamaytirish mexanizmlari o'rganilgan. Metodologik yondashuv sifatida statistik tahlil va ijtimoiy-iqtisodiy indikatorlar tahlilidan foydalanilgan. Natijalar kambag'allikni kamaytirishda tizimli va kompleks iqtisodiy yondashuvlarning ustuvorligini ko'rsatdi. Xulosa sifatida davlat siyosatining faol roli va moliyaviy xizmatlar, daromadlarni oshirish mexanizmlari asosida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: kambag'allik, iqtisodiy o'sish, bandlik, ta'lim, ijtimoiy himoya, tadbirkorlik, daromad, moliyaviy xizmatlar, davlat siyosati.

Abstract: This article examines the economic nature of poverty, the main factors leading to its emergence, and the key directions for its reduction. The study analyzes how economic growth, educational attainment, employment policies, entrepreneurial support, and social protection mechanisms can contribute to poverty alleviation. Statistical methods and socio-economic indicators were used as the methodological framework. The results demonstrate that a systemic and comprehensive economic approach is essential for reducing poverty. The article concludes by emphasizing the active role of public policy and the need to strengthen financial services and income-enhancing mechanisms to ensure social stability.

Key words: poverty, economic growth, employment, education, social protection, entrepreneurship, income, financial services, public policy.

Аннотация: В статье рассматривается экономическая природа бедности, основные причины её возникновения и ключевые направления по её сокращению. В исследовании анализируются влияние экономического роста, уровня образования, политики занятости, поддержки предпринимательства и системы социальной защиты на снижение уровня бедности. В качестве методологической основы использован статистический анализ и оценка социально-экономических индикаторов. Результаты показали эффективность системного и комплексного подхода к преодолению бедности. В заключении подчеркивается значимость государственной политики и необходимости усиления финансовых инструментов и механизмов увеличения доходов населения.

Ключевые слова: бедность, экономический рост, занятость, образование, социальная защита, предпринимательство, доход, финансовые услуги, государственная политика.

KIRISH

Kambag'allikni qisqartirish har qanday mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omillaridan biri sanaladi. Ushbu jarayon nafaqat iqtisodiy resurslarning adolatli taqsimlanishini, balki aholining turmush darajasi va farovonligini oshirishga xizmat qiluvchi kompleks chora-tadbirlar tizimini o'z ichiga oladi. Iqtisodiy mazmun bu yerda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, u orqali o'sish sur'atlari, ish bilan bandlik, daromadlar taqsimoti va ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi baholanadi.



Mazkur yo'nalishdagi davlat siyosatining dolzarbligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi "Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida"gi PF-143-sonli¹ Farmonida alohida qayd etilgan. Unda quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilanadi: aholining yuqori daromadli barqaror ish o'rinlari bilan ta'minlanishi; yoshlar uchun innovatsion va raqamli texnologiyalarga asoslangan ta'lim va kasb-hunar o'rganish imkoniyatlarini kengaytirish; tibbiy va ijtimoiy xizmatlar bilan to'liq qamrovni ta'minlash; shuningdek, mahalliy infratuzilmani rivojlantirish.

Ushbu maqsadlarda 2025-yilda kamida 1 million fuqaroni kambag'allikdan chiqarish vazifasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Bu esa bevosita iqtisodiy o'sishning inklyuziv xarakterga ega bo'lishi, ya'ni barcha ijtimoiy qatlamlar manfaatini qamrab olishi zarurligini ko'rsatadi. Shunday qilib, kambag'allikni tizimli tarzda qisqartirish bo'yicha ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugun O'zbekistonlik olimlardan Ahmedov T.M., Sanaqulova B.R., Hamidov B., Xasanov R.R. va Mustafoulov Sh.I. o'z ilmiy ishlarida kambag'allik muammosi yechimlariga qaratilgan. Kambag'allik muammosini xorij olimlari ham o'rgangan. Jumladan, Mark Milstein, Esuna Dugarova, nemis olimi Robert Lepenies, Emmit Jolly, Challes Booth hamda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan M.V. Beloshapkina, T.Y. Ignatok, T.Y. Nazarova, Y.L. Rjanitsina, Y.Y. Rumyantseva, T.N. Savina va N.Y. Tixonovlarning ilmiy ishlari kambag'allik tushunchasi, uning turlari, kelib chiqish sabablari, aniqlash usullari va qisqartirish yo'llarini tadqiq etishga bag'ishlangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda kambag'allikni qisqartirishga oid ma'lumotlar rasmiy statistik hisobotlar, xalqaro tashkilotlar (Jahon banki, UNDP) hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ochiq manbalaridan olindi. Olingan ma'lumotlar komparativ va trend tahlil usullari orqali, hududiy va yillik ko'rsatkichlar asosida o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirda kambag'allik butun dunyoda nafaqat iqtisodiy, balki chuqur ijtimoiy va madaniy muammo hisoblanadi. Jamiyatda daromadlarning yuqori tabaqalanishi sababli salbiy oqibatlar yuzaga kelmoqda, bu esa kelajakda qaytarib bo'lmaydigan holatlarga olib kelishi mumkin. Qashshoqlik hozirgi davrning eng jiddiy muammolaridan biri bo'lib, mamlakatlarning muvaffaqiyatli iqtisodiy rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, aholining turli tovarlarni iste'mol qilish imkoniyatlarini cheklaydi. Qashshoqlikka barham berish esa hanuzgacha asosiy global muammo bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasida 2021-yilda aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmining 15 421,7 ming so'mga yetishi bir nechta iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillar bilan bog'liq. 2021-yilda O'zbekiston iqtisodiyoti pandemiyadan so'ng tiklana boshladi. Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari – qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmatlar sohasida o'sish kuzatildi. Bu esa aholi daromadlariga bevosita ta'sir ko'rsatdi.

2024-yilda aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmining 24 111,9 ming so'mga yetganining asosiy sabablari quyidagilardir: ish haqlarining o'sishi va bandlik darajasining oshishi, tadbirkorlik faoliyatining kengayishi, ijtimoiy yordam va subsidiyalarning ko'payishi, iqtisodiy o'sish va investitsiyalarning jalb qilinishi. Ushbu omillar aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmining 24 111,9 ming so'mga yetishiga sabab bo'ldi.

2021-yilda O'zbekiston Respublikasida aholi umumiy daromadlari tarkibida birlamchi daromadlarning ulushi 74,7 foizga yetgani bir nechta asosiy omillar bilan izohlanadi: tadbirkorlikdan tushadigan daromadlarning o'sishi, mehnat migratsiyasi va valyuta tushumlari, iqtisodiy faol sektorlarning tiklanishi.

2024-yilda esa bu ko'rsatkich 74,0 foizga tushgan. Bu o'zgarish quyidagi omillar bilan izohlanadi: ijtimoiy transfertlarning oshishi, qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikdan olinadigan daromadlarning o'sishi, tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlarning ko'payishi. Ushbu omillar natijasida 2024-yilda aholi umumiy daromadlari tarkibida birlamchi daromadlar ulushi 74,0 foizga qisqardi.

O'zbekiston Respublikasida 2021-yili aholi jon boshiga real umumiy daromadlar hajmi 13 914,7 ming so'mni tashkil etgani bir nechta omillar bilan bog'liq: inflyatsiya ta'siri, pandemiyadan keyingi iqtisodiy tiklanish, ijtimoiy yordam va subsidiya dasturlarining yetarlicha keng emasligi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi "Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida"gi PF-143-sonli Farmonida: <https://www.lex.uz/uz/docs/-/7109857>



2024-yilda esa aholi jon boshiga real umumiy daromadlar hajmining 21 991,9 ming so'mga yetishi quyidagi asosiy omillar bilan bog'liq: nominal daromadlarning sezilarli o'sishi, mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning o'sishi, iqtisodiy barqarorlik va investitsiyalarning jalb qilinishi.

2021-yilda aholi real umumiy daromadlarining umumiy hajmi 485 834,8 mlrd so'mni tashkil etgani quyidagi asosiy iqtisodiy va ijtimoiy omillar bilan izohlanadi: 2020-yildagi COVID-19 pandemiyasi iqtisodiy faollikni susaytirdi, biroq 2021-yilda iqtisodiyot asta-sekin tiklana boshladi. Nominal daromadlar – ish haqlari, tadbirkorlik daromadlari va boshqa birlamchi daromadlar o'sdi. Ijtimoiy yordam dasturlari esa bosqichma-bosqich kengaytirildi.

2024-yilda esa aholi real umumiy daromadlari hajmi 817 470,3 mlrd so'mga yetdi. Bu ko'rsatkich bir qator iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional omillar bilan izohlanadi: makroiqtisodiy barqarorlik, mehnat migratsiyasi va valyuta tushumlari, ijtimoiy yordam va transfertlarning ko'payishi, tadbirkorlik faoliyatining kengayishi, ish haqi va mehnat daromadlarining ortishi (1-jadval)

1-jadval. Aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi.

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2021	2022	2023	2024
Aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi	ming so'm	15421,7	18373,9	20764,5	24111,9
Aholi umumiy daromadlar tarkibida birlamchi daromadlarning ulushi	foiz	74,7	71,1	72,9	74,0
Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar hajmi	ming so'm	13914,7	16487,7	18881,9	21991,9
Aholi real umumiy daromadlar hajmi	mlrd.so'm	485834,8	587754,2	687536,8	817470,3

Mamlakatda kambag'allikni qisqartirish uchun iqtisodiy o'sish orqali daromadlarni oshirish muhim ahamiyatga ega. Yangi ish o'rinlarining yaratilishi aholining real daromadlarini oshiradi va kambag'allik darajasini pasaytiradi. Ichki va tashqi investitsiyalar yangi sanoat tarmoqlarini rivojlantirish, infratuzilmani yaxshilash hamda mahalliy aholini ish bilan ta'minlash imkonini beradi.

Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, ayniqsa yoshlar va ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlar uchun biznes boshlash imkoniyatlarini yaratish ularning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlaydi. Yaxshi ishlovchi mehnat bozori, adolatli ish haqi tizimi va bandlik siyosati orqali aholining iqtisodiy faolligi oshadi.

Adolatli soliq tizimi va samarali davlat xarajatlari kambag'allikka qarshi kurashda iqtisodiy asos bo'lib xizmat qiladi (masalan, ijtimoiy yordam dasturlari). Bank xizmatlari, mikrokreditlar va boshqa moliyaviy vositalar orqali kambag'allar o'z biznesini boshlashi yoki daromadlarini oshirishi mumkin. Inflyatsiyani nazorat qilish va asosiy iste'mol tovarlari narxlarini barqaror saqlash orqali aholining xarid qobiliyati ta'minlanadi.

Kambag'allar uchun ta'lim olish imkoniyatlarining kengaytirilishi ularning hayotini yaxshilashga xizmat qiluvchi yangi ish imkoniyatlarini topishlariga yordam beradi. Ta'lim darajasi oshgan sari, fuqarolarning ishga joylashish va yuqori maoshli ishlarni egallash imkoniyatlari ortadi. Kambag'allikni qisqartirish uchun iqtisodiy rivojlanish va yangi ish o'rinlarini yaratish muhim ahamiyatga ega. Ishsizlikni kamaytirish hamda yangi sohalarida ish o'rinlari yaratish fuqarolarning moliyaviy holatini yaxshilash imkonini beradi.

Sog'liqni saqlash tizimining rivojlanishi aholining salomatligini mustahkamlash, kasalliklarning oldini olish va ijtimoiy himoya darajasini oshirish orqali kambag'allikni kamaytirishga xizmat qiladi. Tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi kambag'allarni ijtimoiy tizim doirasida saqlab turadi.

Kambag'allikni qisqartirishda mikrokreditlar va kichik biznesni rivojlantirish imkoniyatlarini yaratish ahamiyatlidir. Bu aholi, ayniqsa yoshlar va zaif ijtimoiy qatlamlar vakillarining o'z ish faoliyatini boshlashiga va iqtisodiy mustaqillikka erishishiga turtki bo'ladi. Shu bilan birga, ijtimoiy himoya dasturlarining samarali joriy etilishi orqali eng kam daromadli oilalar, nogironlar, pensionerlar va boshqa ijtimoiy zaif guruhlar qo'llab-quvvatlanadi.

Kambag'allikni qisqartirishda hukumatning to'g'ri siyosati va barqaror boshqaruvi muhim rol o'ynaydi. Korrupsiya va ijtimoiy beqarorlik kambag'allikni kuchaytiradi. Shu bois, samarali, adolatli va shaffof siyosat yuritilishi zarur. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish, ayniqsa, qishloq hududlarida istiqomat qiluvchi aholi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Transport va kommunikatsiya infratuzilmasining yaxshilanishi iqtisodiy faollikni oshiradi.

Ta'limga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi, ayniqsa kambag'al oilalarda yashovchi bolalar uchun, uzoq muddatli kambag'allikning davom etishiga olib kelishi mumkin. Past ta'lim darajasi yuqori malakali ishlarni



egallash imkoniyatini pasaytiradi va kambag'allikni chuqurlashtiradi. Ish o'rinlarining yetishmasligi va yuqori bandlik darajasini ta'minlashdagi muammolar fuqarolarning o'z hayotini yaxshilashiga to'siq bo'ladi. Uzoq davom etadigan ishsizlik kambag'allikka olib kelishi mumkin.

Sog'liqni saqlash xizmatlariga kirish imkoniyatining yetarli emasligi yoki sifatsiz tibbiy xizmatlardan foydalanish kambag'allikni yanada kuchaytiradi. Kasalliklar va jarohatlar odamlarning ishga joylashish imkoniyatlarini cheklaydi, sog'liqni saqlashga sarflanadigan xarajatlar esa ularning moliyaviy ahvolini yomonlashtiradi.

Ijtimoiy tengsizlik – resurslar va imkoniyatlar taqsimotidagi nomutanosiblik – kambag'allikning keng tarqalishiga olib keladi. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimdagi adolatsizlik kambag'allikni kuchaytiruvchi omil sifatida maydonga chiqadi. Rivojlanmagan yoki zaif iqtisodiy tizimlar, ayniqsa yuqori malaka va innovatsiyani talab qiluvchi sohalarning yetarli emasligi sababli kambag'allikni yanada kuchaytiradi.

Kambag'allik qishloq hududlarida kengroq tarqalgan bo'lib, qishloq xo'jaligiga, infratuzilmaga va tabiiy resurslarga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi tufayli aholi iqtisodiy jihatdan zaiflashadi. Resurslarga kirish imkoniyatlarining yo'qolishi kambag'allik darajasining ortishiga olib keladi. Korrupsiya tizimi esa kambag'allarning imkoniyatlarini yanada cheklaydi, chunki davlat mablag'lari va resurslari adolatsiz taqsimlanadi. Bu esa kambag'allikni chuqurlashtirib, ijtimoiy taraqqiyotga to'sqinlik qiladi (2-jadval).

2-jadval. Kambag'allikni qisqartirish va kambag'allikka sabab bo'ladigan omillar.

Kambag'allikni qisqartirishga sabab bo'ladigan omillar	Kambag'allikka sabab bo'ladigan omillar
Ta'lim va malaka oshirish	Ta'limning etishmasligi
Ish o'rinlari yaratish	Ishsizlik
Sog'liqni saqlash tizimi	Sog'liqni saqlash tizimining zaifligi
Mikro kreditlar va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash	Ijtimoiy tengsizlik va adolatsizlik
Ijtimoiy himoya dasturlari	Kam rivojlangan iqtisodiyot
Yaxshi boshqaruv va siyosiy barqarorlik	Qishloq xo'jaligi va resurslar taqsimotidagi muammolar
Qishloq xo'jaligi va infratuzilma rivojlanishi	Korrupsiya

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, kambag'allikni qisqartirish har bir davlatning ustuvor vazifalaridan biridir. Bu jarayon faqat moddiy yordam ko'rsatish bilangina emas, balki chuqur iqtisodiy islohotlar, ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish, bandlik siyosatini samarali yuritish, sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va adolatli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish orqali yuzaga chiqadi. Iqtisodiy o'sish bilan birga aholining turmush darajasini oshirishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar kambag'allikni kamaytirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois, samarali iqtisodiy siyosat va ijtimoiy adolat tamoyillariga tayangan holda kambag'allikka qarshi tizimli kurash olib borish zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jalolova, M., Amirov, L., Askarova, M. va Zaxidov, G. (2022). Territoriyaviy xususiyatlarga ega temiryo'l transporti boshqaruv mexanizmlarining o'ziga xosligi. Transportation Research Procedia, 63, 2645–2652.
2. Zaxidov, G. (2024). Iqtisodiy indikatorlar: bozor tendensiyalarini tahlil qilish va kelajakdagi natijalarni prognozlash vositalari. Xalqaro multidisiplinar ilmiy nazariy jurnal, 2(3), 23–29.
3. Jumayev N. Koronavirus ortidagi iqtisodiy muammolar, kambag'allik, oshayotgan tashqi qarz va YeOI. 16.04.2020.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 156 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2020-yil 25-yanvar, № 19 (7521).
6. Alimova Sh.A., va Shadiev A.X. (2025). O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishidagi o'rni: 2021–2024-yillar tahlili. Theory of Scientific Researches of Whole World, 1(3), 245–252.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
